

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA FANLARARO INTEGRATSIYA ORQALI EKOLOGIK
ONGNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

Ergasheva Muhsina To'xtayevna

Termiz davlat pedagogika instituti

Maktabgacha va Boshlang'ich ta'lim fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 25-02-guruh
talabasi

E-mail: ergasheva_muhsina1@gmail.com

Ilmiy rahbari: Panjiyev Jo'raqul Menglimamat o'g'li

Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi

E-mail: panjiyevjoraqul@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik ongni shakllantirishda fanlararo integratsiya metodikasini o'rganishga qaratilgan. Tabiiy fanlar, ona tili, matematika va tasviriy san'at kabi fanlarni birlashtirish orqali yosh avlodga atrof-muhit tushunchalarini tizimli va mazmunli tarzda yetkazish mumkin. Nazariy bilimlarni amaliy kuzatuvlar, ijodiy loyihalar va interfaol faoliyat bilan bog'lash o'quvchilarda nafaqat ekologik tushunchalarni rivojlantiradi, balki tanqidiy fikrlash, muammoni hal etish ko'nikmalari va tabiatga mas'uliyat hissini shakllantiradi.

Kalit so'zlar: ekologik ong, boshlang'ich ta'lim, fanlararo integratsiya, atrof-muhit ta'limi, barqaror xulq-atvor, integratsiyalashgan ta'lim metodlari, o'quv markazli ta'lim

Annotation. This study focuses on the methodology of fostering ecological awareness in primary school students through interdisciplinary integration. By combining subjects such as natural sciences, language arts, mathematics, and visual arts, environmental concepts can be conveyed to young learners in a systematic and meaningful way. Linking theoretical knowledge with practical observations, creative projects, and interactive activities not only develops students' ecological understanding but also enhances critical thinking, problem-solving skills, and a sense of responsibility toward nature.

Keywords: ecological awareness, primary education, interdisciplinary integration, environmental education, sustainable behavior, integrated teaching methods, student-centered learning.

Kirish. Boshlang'ich ta'limda fanlararo integratsiya (tabiat, ona tili, tasviriy san'at) orqali ekologik ongni shakllantirishda o'yin texnologiyalari, loyihaviy ishlar va tabiat qo'ynidagi amaliy mashg'ulotlar samarali metodlar hisoblanadi. Bu yondashuv o'quvchilarda atrof-muhitga ongli munosabat, mas'uliyat va tabiatni asrash ko'nikmalarini erta yoshdan rivojlantiradi. Ta'limda o'quvchilarga ma'lum bilimlar tizimini yetkazib, ulami faqat eslab qolishning o'zi bugungi kunda yetarli bo'lmay qoldi. Zamonaviy bilim olishda motivatsiya uyg'otish, mustaqil bilim olish ishtiyoqini hosil qilish, integratsiya asosida ta'lim berish dolzarb vazifalardan. Hozirgi davrda ekologik muammolar insoniyat oldida turgan eng dolzarb masalalardan biriga aylangan. Atmosfera, suv, tuproq ifloslanishi, o'simlik va hayvonot dunyosining qisqarishi, iqlim o'zgarishi kabi global muammolar zamonaviy ta'lim tizimiga ham jiddiy vazifalarni yuklamoqda. Bu esa yosh avlodda ekologik ong, ekologik madaniyat va tabiatga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish zaruratini yanada oshirmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida ekologik tarbiyani yo'lga qo'yish nihoyatda muhimdir. Chunki bu yosh davr bolalarning shaxs sifatida shakllanishi, axloqiy mezonlari va hayotiy qadriyatlarining rivojlanish bosqichidir. Shu sababli, ularning ongiga tabiatni asrash, atrof-

muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, ekologik muammolarga befarq bo'lmaslik kabi tushunchalarni singdirish o'qituvchining asosiy pedagogik vazifalaridan biri hisoblanadi.

Muhokama va natijaviylik. Zamonaviy ta'lim texnologiyasi ana shunday talabni ruyobga chiqarishga qaratilgan ta'lim tizimidir. Texnologiyaning asosiy talabi o'quvchilarning puxta bilim olishi, bilimlarni o'zlashtirishda faollik ko'rsatishi, mustaqil fikrlashi, ta'limda aniq samarali natijaga erishish hisoblanadi.

Mazkur me'yoriy - huquqiy hujjatlarda asosiy e'tibor o'sib kelayotgan yosh avlodda ong tafakkur va madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, uzluksiz ta'lim tizimining har bir bo'g'ini, xususan umumta'lim maktablarida o'qitiladigan barcha o'quv fanlari mazmunidan kelib chiqqan holda, fanlararo aloqadorlik mazmunidagi ta'lim - tarbiya tizimini belgilash va amalga oshirish zarur.

Boshlang'ich sinflarda o'quv fanlarini fanlararo aloqadorlik mazmunida o'qitish o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Integratsiyalashgan ta'limni takomillashtirish texnologiyasi jarayonida o'quvchilar ongida yangi fikr yuritishga, ma'lum bir fanni mukammal bilib olishga va fanlarga bo'lgan qiziqishini orttirishga sabab bo'ladi.

O'quvchilar o'zlarining amaliy faoliyatlarida yangi dalillar, bilim va tushunchalarni o'rganadilar va bu orqali mavjud amaliy faoliyat asosida darslarda o'rganilgan yangi mavzular umumlashtiriladi. Natijada ular o'quvchilarda hosil bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarga aylanadi.

Integratsiya va pedagogik faoliyat- meyor va ijodning, fan va san'atning uyg'unlashishi sanaladi. Shuning uchun ham integratsiyalashgan ta'limda mavjud o'quv faoliyatining rang-barang usullarini to'g'ri birlashtirish muhim. Zero, muvaffaqiyat ta'lim va tarbiya natijasiga bog'liq jarayon hisoblanadi.

Fanlararo integratsiyalash o'qituvchi tomonidan qo'llanilganda o'quv-tarbiya ishlarining sifati oshadi va ayni o'zi o'rganayotgan fanni yanada chuqurroq o'zlashtirishga sharoit yaratib beradi. O'qituvchi o'z ish faoliyatida bu bog'lanishlarni darsning mazmuniga qarab amalga oshirishi lozim. Fanlararo bog'lanish o'quvchilarda tabiatga bo'lgan ruhiy his-tuyg'ularni, ijodkorlik qobiliyatini oshiradi.

Boshlang'ich sinf o'quv fanlarini integratsiyalash quyidagi tartibda tizimlashtiriladi. Jumladan, ona tili va o'qish savodxonligi, tabiiy fanlar (tabiatshunoslik), matematika, texnologiya, tarbiya kabi fanlarni o'zaro bog'lab aloqadorlikda o'qitish ko'zda tutiladi.

O'qituvchi faoliyati o'rgatuvchi faoliyat va o'quvchi faoliyati o'rganuvchi faoliyat barobarligi (adekvatli) hisoblanadi. Faoliyatning umumiy tuzilishi: maqsadlar, rag'batlar, vositalar, natijalar, nazorat va turli fanlar bo'yicha sintezlashni hisobga olgan holda, o'zaro baholash, o'zaro nazorat qilish sanaladi.

Avvalo, qaysi darslar integratsiyalash uchun mos kelishini aniqlab olish kerak. Bunday darslarning asosi-turli fanlar asosiy mavzulari mazmunining yaqinligi va mantiqiy aloqadorligi hisoblanadi.

O'quvchilarning bu xususiyatlarini hisobga olib, qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash uchun bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini yangi mazmun bilan to'ldirib turish lozim. Bu o'quvchilarga hayotdagi o'zaro aloqalarni ochib berishga hamda tabiatdagi turli-tumanliksiz inson yashay olmasligini tushunib yetishiga imkoniyat yaratadi.

Ta'limda fanlararo integratsiya, shuningdek, zamonaviy ta'lim texnologiyalari, jumladan, ta'limni kompyuterlashtirish va axborotlashtirish kabi vositalar muhim tashkil etuvchi vositalar sifatida namoyon bo'lishi mumkinligi alohida ta'kidlanadi. Integratsiya tabiiy fanlar mazmunida insonparvarlashuvining asosiy mexanizmi hisoblanadi.

Shuningdek, o'quv fanlariga oid bilim va qiziqishlarni rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi. O'quv materialini mavzular bo'yicha tahlil etish yo'li bilan turli o'quv fanlarining qaysi mavzulari bir-biri bilan aloqadorligi yuzaki ravishda aniqlansa, tarkibiy tahlil etish orqali o'quv materialining tashkil etuvchi tushunchalari, dalillari, qonuniyatlari, hukm, xulosalari, tasavvurlari orasidagi aloqadorlik o'rnatiladi.

Fanlarni integratsiyalash muammosini o'rganish, tatqiq etishda shu narsa ma'lum bo'ldiki, fanni va ilmiy bilimlarni integratsiyalash jarayonining negizi moddiy olamning birligi, ya'ni tabiat, jamiyat va uni anglashning o'zaro uzviyligi. Fanlar o'rtasidagi uzviylik, o'zaro bog'liqlikning rivoji, bu sohada axborot vositalarining muhim ahamiyat kasb etishi natijasida ta'lim-tarbiya jarayonida erishilayotgan yutuqlar tabiat, jamiyat, texnika sohasi-moddiy olamda ham namoyon bo'lmoqda. Bu o'zaro ta'sir har bir fanning ichki tabiiy rivoji uchun zarur omil bo'lib sanaladi.

O'quv jarayonida fanlararo aloqadorlik mazmunidagi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni o'rnatish ta'limni integratsiyalashgan yondashuvining metodik asosi hisoblanadi va bu jarayonda turli darslarga, tushunchalarga ko'p marta qaytishi, ularni chuqurlashtirish va boyitish, yoshga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda tushunarli bo'lgan muhim bilimlarni berish orqali erishish mumkin.

Xulosa qilib aytgandigan bo'lsak, boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishni samarali tashkil etish, pedagogik texnologiyalarning mazmuni, shakl va vositalari, ta'lim berishda pedagogik texnologiyalardan to'g'ri va unumli foydalanish uslublari, kafolatlangan natijaga erishish uchun olib borilayotgan ta'lim sohasidagi yangiliklarni o'rganish, amaliyotda foydalanish ishning amaliy ahamiyatini belgilaydi. Ta'lim jarayoni nihoyatda murakkab jarayon bo'lganligi uchun ta'lim samaradorligi pedagog va o'quvchi faolliligiga, ta'lim vositalarining mavjudligiga, ta'lim jarayonining tashkiliy, ilmiy, metodik mukammalligiga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Norbo'tayev X.B. Boshlang'ich sinflarda integratsiyalashgan ta'lim. Darslik. - Toshkent : "Innovatsiya-Ziyo", 2023, 174 b.
2. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H. "Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi". O'quv qo'llanma. -Toshkent. "Ilm Ziyo"- 2013.-192 b.
3. Panjiyev , J. (2023). ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA TARQATMA MATERIALLARNI RASMLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH. *Interpretation and Researches*, 2(1).
4. Jurakul PANJIEV. (2023). IMPROVEMENT OF ECOLOGICAL CONCEPTS IN PRIMARY CLASS STUDENTS BASED ON INTEGRATION OF SCIENCES. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 84-89.
5. Jurakul PANJIEV. (2023). PRIMARY CLASS CONTENT OF MATERIALS ON IMPROVING THE STUDENTS' ECOLOGICAL CONCEPTS BASED ON THE INTEGRATION OF THE SCIENCES. *World Bulletin of Social Sciences*, 27, 90-95.
6. Jurakul Panjiev. (2023). PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF INTEGRATION OF MODERN PRIMARY EDUCATION LESSONS. *Academia Repository*, 2(11), 37-45.